

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA AYOL SEMASINING IFODALANISHI.

Ro'ziyeva Rayhon Abduxalilovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi

Yuqori kurslar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbek xalq maqollari, xalqning qadimiy donoligini, hayotiy tajribasini va madaniyatini aks ettiruvchi muhim adabiy asarlardir. Ular nafaqat hayotiy saboqlarni o'z ichiga oladi, balki ayol obrazini, uning roli va ahamiyatini ham chuqur ifodalaydi. O'zbek xalq maqollarida ayolning obrazini ko'rish, uning ijtimoiy, oilaviy va madaniy hayotdagi o'rnini anglashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada O'zbek xalq maqollarida ayol semasining ifodalanishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek xalq maqollari, ayol, oila, adabiyot, jamiyat, munosabatlar, ibora.

Аннотация: Узбекские народные пословицы являются важными литературными произведениями, отражающими древнюю мудрость, жизненный опыт и культуру народа. Они не только содержат жизненные уроки, но и глубоко выражают образ женщины, ее роль и значимость. Важно увидеть образ женщины в узбекских народных пословицах, понять ее место в общественной, семейной и культурной жизни. В данной статье дана информация о репрезентации женской семы в узбекских народных пословицах.

Ключевые слова: Узбекские народные пословицы, женщина, семья, литература, общество, отношения, словосочетание.

Abstract: Uzbek folk proverbs are important literary works that reflect the ancient wisdom, life experience and culture of the people. They not only contain life lessons, but also deeply express the image of a woman, her role and importance. It is important to see the image of a woman in Uzbek folk proverbs, to understand her place in social, family and cultural life. In this article, information is given about the representation of the female sema in Uzbek folk proverbs.

Key words: Uzbek folk proverbs, woman, family, literature, society, relations, phrase.



KIRISH.

Maqol — xalq ogʻzaki ijodi janri boʻlib, qisqa va loʻnda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan maʼnoli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuygʻulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, doʻstlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, koʻp hollarda qofiyadoshlik, baʼzan koʻp maʼnolilik, majoziy maʼnolarga boylik kabi xususiyatlar harakterli. Quyida maqollarda ayollarga nisbatan jamiyatda mavjud boʻlgan qarashlar va ularning ijtimoiy mavqei, ayollar haqidagi anʼanaviy tasavvurlar, gender stereotiplari va obraziy roʻllarining taqsimlanishi qanday aks ettirilganligini ochib beramiz. Bir ayolning makri qirq tuyaga yukdir maqoli ayollarning aqliy va psixologik qobiliyatlari, ijtimoiy munosabatlardagi mahoratini va oʻz maqsadlariga erishishda qoʻllaydigan strategiyalarni ifodalaydi. [3]

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Ayol obrazi bu oʻrinda salbiy konnotatsiya kasb etib, makkorlik va hiyla-nayrangni anglatuvchi maʼnoda gender stereotiplarini aks ettiradi. Uch ayol – toʻrt gʻiybat maqolida ayol soʻzi salbiy stereotipik xususiyatlar bilan bogʻlanadi. Maqol ayollar oʻrtasidagi munosabatlarni gʻiybat va mish-mishlarga moyil deb tasvirlaydi. Bu kabi qoʻllanishlar ayol soʻzining semantikasini cheklaydi va gender stereotiplarini voqelantiradi. Ayolning aqli uning goʻzalligida, erkakning goʻzalligi uning aqlida maqolida ayol soʻzi erkaklardan farqli oʻlaroq, asosan tashqi koʻrinish bilan bogʻliq holda keltiriladi. [1]

Bu maqoldagi ayol soʻzining qoʻllanilishi jinslararo farqlarni keskin ajratib, ayollarning aql-idrokini erkaklarnikidan pastroq qoʻyadi. Ayol soʻzining bunday semantik chegaralanishi gender tengsizligini yuzaga chiqargan holda ayollarning intellektual salohiyatini toʻliq eʼtirof etishga toʻsqinlik qiladi. Koʻrib turganimizdek, oʻzbek maqollarida ayol soʻzining semantikasi va qoʻllanilish xususiyatlari jamiyatdagi gender stereotiplarini aks ettiradi. Ayol soʻzi koʻpincha anʼanaviy gender



rollariga mos keladigan ma'nolarda, ya'ni ayollarning tashqi ko'rinishi, axloqiy fazilatlari yoki salbiy stereotiplarga ishora qilish jihatidan qo'llanilgan.[5]

XULOSA

O'zbek xalq maqollari, ayol obrazini turli jihatlari bilan ifodalaydi. Ular, ayolning oila, jamiyat, ta'limdagi o'rnini, qadr-qimmatini va ahamiyatini ko'rsatadi. Maqollar, xalqning qadimiy donoligini va ayolga bo'lgan hurmatini aks ettiradi. O'zbek xalq maqollari orqali ayolning roli va ahamiyatini tushunish, jamiyatimizda ayolga bo'lgan munosabatni yanada yaxshilashga yordam beradi. Ayol obrazining ifodalanishi, xalqimizning madaniyati va an'analarini yanada boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ozbek xalq og'zaki ijodi" , O. Safarov. Toshkent, 2010 "Musiqqa" nashriyoti.
2. "O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi". T. Mirzayev, O. Safarov, D. O'rayeva. T., <Aloqachi>, 2008.
3. "Ipak yo'li afsonalari". M. Jo'rayev. T., <Fan> nashriyoti, 1993.
4. "Oppoq unning urvog'i" M. Jo'rayev. Lesson press nashriyoti, 2021.
5. "Folklorshunoslikka kirish" M. Jo'rayev, J.Eshonqulov, T., 2017.

